

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING CHET TILLARINI
O'QITISH VA O'RGANISHDAGI O'RNI, AHAMIYATI**

Mo'minova Orzuxon Rasuljon qizi

Farg'ona davlat universiteti,

Chet tillari fakulteti, Filologiya va tillarni

o'qitish yo'nalishi 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Toshboltayev O'rinboyevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) chet tillarini o'qitish va o'rganish jarayonidagi o'rni va afzalliklari ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar orqali til darslarining samaradorligini oshirish, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish, masofaviy ta'lim, interaktiv platformalar va multimedia vositalari asosida til o'rganish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, AKTdan foydalanishning didaktik va pedagogik jihatlari ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, chet tili o'qitish, raqamli ta'lim, interaktiv vositalar, til kompetensiyasi.

Annotation: this article provides a scientific-theoretical analysis of the role and advantages of information and communication technologies (ICT) in the process of teaching and learning foreign languages. Through modern technologies, the possibilities of improving the effectiveness of language lessons, the development of independent learning skills, distance learning, interactive platforms and language learning based on multimedia tools are considered. The didactic and pedagogical aspects of the use of ICT are also covered.

Keywords: information technology, Foreign Language Teaching, digital education, interactive tools, language competence.

Аннотация: В данной статье будет проведен научно-теоретический анализ роли и преимуществ информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в процессе преподавания и изучения иностранных языков.



Рассматриваются возможности повышения эффективности языковых занятий с помощью современных технологий, развития навыков самостоятельного обучения, дистанционного обучения, изучения языка на основе интерактивных платформ и мультимедийных средств. Также будут освещены дидактические и педагогические аспекты использования ИКТ.

Ключевые слова: *информационные технологии, обучение иностранному языку, цифровое образование, интерактивные инструменты, языковая компетентность.*

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida chet tillarini o'rganish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi chet tillarini o'qitish metodikasiga yangicha yondashuvlarni olib kirmoqda. Zamonaviy o'quvchilarning axborot olishga bo'lgan ehtiyoji va texnologiyalarga bo'lgan qiziqishi AKT vositalarining ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvini tezlashtirmoqda va ta'lim tizimida chuqur o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. XXI asr — yuksak texnologiyalar asri bo'lib, zamonaviy yoshlarimiz nafaqat davr ruhiga monand, balki electron olamdagi taraqqiyotga muvofiq qadam tashlamoqdalar. Shu boisdan ham, yoshavlodga ta'lim berish jarayoniga boshqacha yondashishni talab etmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o'qitish va o'rganishda AKT vositalari o'quvchilarning til ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Elektron darsliklar, onlayn platformalar, videodarslar va test tizimlari dars jarayonining sifatini oshiradi.

Tadqiqotchi Beatty (2013) AKT yordamida o'rganilgan til mahorati o'quvchilarda mustahkamroq shakllanishini qayd etgan. Shu bilan birga, texnologiyalar orqali individual yondashuvni ta'minlash mumkin, bu esa o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Darslarda o'qituvchiningo'rni ham o'zgarib bormoqda. o'qituvchi endilikda asosan yo'naltiruvchi vazifasini o'tamoqda. Zamon bilan hamnafas qadam tashlashni maqsad qilgan o'qituvchilar darsning har qanday qismini AKT orqali jonlantirishga tayyor bo'lishlarini davr talab etmoqda.

Chet tilini o'rganishda AKTning afzalliklari AKT yordamida til o'rganish quyidagi afzalliklarni beradi:



- Moslashuvchanlik: Har qanday vaqtda, har qanday joyda o'rganish imkoniyati.
- Individual yondashuv: Sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan ilovalar o'quvchining ehtiyojiga mos materiallarni taklif etadi.
- Multimediya resurslari: Video, audio va interaktiv topshiriqlar eshitish, ko'rish va talaffuz ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- Real muloqot muhiti: Onlayn suhbatlar orqali chet elliklar bilan muloqot qilish amaliy tajribani oshiradi.

Chapelle (2001) o'z tadqiqotida ko'rsatganidek, multimediya asosida olib borilgan darslar o'quvchilarning diqqatini jamlashiga va yuqori natijaga erishishiga olib keladi.

o'qituvchilar uchun AKT yangi uslublar va interaktiv metodikalarni tatbiq etish imkoniyatini yaratadi. Masalan, Zoom va Google Classroom kabi platformalarda onlayn dars o'tkazish, test va mashqlarni avtomatik baholash tizimlari mavjud. Shuningdek, Quizlet, Wordwall, Edpuzzle kabi ilovalar yordamida o'quvchilarni darsga jalb qilish osonlashadi. Bu esa dars jarayonini zamonaviylashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar natijalari

Warschauer va Healey (1998) AKT yordamida til o'rganishning samaradorligi haqida o'tkazgan tadqiqotlarida, o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligi an'ana viy metodlarga qaraganda yuqori bo'lganini aniqlagan. Bundan tashqari, UNESCO hisoboti (2022)da AKT bilan qo'llab-quvvatlangan ta'limning til o'rganishga ijobiy ta'siri borligi, ayniqsa interaktivlik va o'zaro aloqadorlik darajasi yuqori bo'lgan platformalarda yaxshi natijalar kuzatilgani ta'kidlangan. Ba'zi manbalarga ko'ra, AKT yordamida o'rgatilgan til materiallari 30–50% gacha yuqori darajada esda qoladi. Cambridge University Press (2020) nashriyotida onlayn ta'lim vositalaridan foydalangan talabalar an'anaviy darslarga qatnashganlardan 25-30% tezroq yangi so'zlarni o'zlashtirganligi ma'lum qilingan. Ellis, R. (2003) – “Task-Based Language Learning and Treaning” kitobida esa til o'rganishda texnologiyalardan foydalanish motivatsiyani oshirish, o'z-o'zini nazorat qilish va



mustaqil o'rganishga katta hissa qo'shishi ta'kidlangan. Duolingo Research Team (2020) natijalariga qaraganda ilovaning faol foydalanuvchilari haftasiga o'rtacha 3-4 soatlik mashg'ulot orqali A2 darajadagi so'z boyligini shakllantirishga erishgan.

Chet tili o'ziga xosligi (tabiiy til yo'qligi sababli o'quvchilar uchun sun'iy til muhitini yaratish) tufayli turli xil texnik o'qitish vositalaridan eng moslashuvchan va keng foydalanishni nazarda tutadigan akademik fandır. Shu sababli, chet tilini o'rgatishda multimedia tomonidan ochilgan yangi imkoniyatlar keng ko'lamli ilovalarni topgan bo'lsa ajab emas. Masalan, ingliz tilini kompyuter yordamida o'rgatishning an'anaviy o'rgatish usullariga nisbatan bir necha ustunlik jihatlari bordin. Birinchi navbatda, kompyuter asosida ingliz tilini o'rganayotgan o'quvchida tilning to'rt yo'nalishida (gapirish, tinglab tushunish, yozish va o'qish) o'z ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish imkoni bo'ladi. Hozirgi vaqtda rivojlangan dasturlar yordamida buning imkoni bordin. Faqat bu usuldagi ta'limga o'quvchini to'g'ri yo'naltira olish kerak. Bundan tashqari kompyuter yordamida chet tillarini o'qitishda o'rgatilayotgan har bir qoida, har bir so'z, har bir tushuncha birligi o'quvchi xotirasida yaxshiroq saqlanishi isbotlangan. Tabiiyki, kompyuterning boy grafik imkoniyatlari, holatlarga oid ma'lumotlarni ovozli, matnli, tasvirli va video ko'rinishda yetkazib bera olishi kompyuter orqali chet tillarini o'qitishni eng samarali usullardan biriga aylantiradi.

Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli asarlarida ta'kidlanganlaridek: "Agar o'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, bo'lajak buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak". Shunday qilib, chet tilini o'rganish hozirgi davr talabi ekan, o'sib kelayotgan yosh avlodga til o'rganishning yangi uslublarini, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga asoslangan holda ishlab chiqib, o'qish jarayoniga tavsiya etish olimlar, mutaxassislar oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori: "Chet tillarini o'rganishni ommalashtirishda raqamli



texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar" -qabul qilindi va bu hujjat til o'rgatishda zamonaviy IT vositalarining keng joriy etilishini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalarining chet tillarini o'qitish va o'rganishdagi o'rni beqiyosdir. Ular o'quvchilarni mustaqil o'rganishga undaydi, til o'rganish jarayonini individuallashtiradi hamda tilga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Shu sababli, til o'qituvchilari AKTdan samarali foydalanish ko'nikmalarini egallashi va uni dars jarayoniga faol integratsiya qilishi ta'lim sifati oshishida muhim omil bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. *Language Teaching*, 31(2), 57–71.
2. Beatty, K. (2013). *Teaching and Researching: Computer-Assisted Language Learning*. Routledge.
3. Bax, S. (2003). CALL—past, present and future. *System*, 31(1), 13–28.
4. Chapelle, C. A. (2001). *Computer applications in second language acquisition: Foundations for teaching, testing and research*. Cambridge University Press
5. www.lex.uz